

Usmon Nosir

Sabolar qaytgusi baxmal bog'larga,
Navolar qaytgusi mahtal bog'larga.
Qodiriyning qabri qizg'aldoqdarga
To'lg'ay kunlar hali kelmog'i bordir.
O'shal qizg'aldoqlar armonim mening,
Osmonga etmagan narvonim mening.
Jim qolur tinglab gul zabonim mening
— To'rg'ay kunlar hali kelmog'i bordir.
Yulduzlar — Sulton Ulug'bek imoni,
Topolmasdan sarson Bobur mirzoni.
Cho'g'damas bosh uzra Muqanna joni
Bo'lg'ay kunlar hali kelmog'i bordir.
Qora dillar o'tmish tosh varag'ida,
Tushmadi qo'llari hech yarog'idan.
Boshi ham bir kun vijdon so'rog'ida
Turg'ay kunlar hali kelmog'i bordir.
She'ring qo'y, yur Qo'qon ketaylik, Usmon,
Sen do'stim deganlar hammasi dushman...
Usmonning qismatin bu O'zbekiston
Bilgay kunlar hali kelmog'i bordir.

Muhammad Yusuf
“Ulug'imsan, Vatanim” kitobidan